

Yangi islohotlar davridagi muhim vazifalar

2018-yil 6-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan Milliy matbuot markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 6-aprelda O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutida olimlar bilan o'tkazgan uchrashuv bayonida belgilangan topshiriqlar ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi. Unda FA bosh ilmiy kotibi, ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari hamda yetakchi olimlar ishtirok etdi. Matbuot anjumanida FA bosh ilmiy kotibi G'.Baxadirov joriy yil 6-aprelda Davlatimiz rahbari bilan bo'lgan uchrashuv Fanlar akademiyasi olimlari uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligini alohida ta'kidladi.



Shuningdek, FA O'simlik moddalari kimyosi instituti direktori Sh.Sagdullayev so'zga chiqib, Institutda tajriba-ishlab chiqarish jarayoni xalqaro GMP standartiga muvofiq modernizatsiya qilinayotganligi va buning natijasida yiliga 500 tonnadan ziyod o'simlik xom ashyosini chuqur qayta ishlash imkoniyatini yaratilganligi haqida so'zladi. Joriy yildan 30 dan ortiq tabiiy toza, import o'rnini bosuvchi va eksportbop dori vositalari ishlab chiqarish imkoniyatini berishini ta'kidlab o'tdi.

Anjuman ishtirokchilariga Prezident topshirig'i asosida bajarilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar berildi.

